



## RAQAMLASHUV JARAYONIDA BANK XIZMATLARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH VA AHOLINING MOLIVAVIY MADANIYATINI YUKSALTIRISH

*i.f.n., prof. Azlarova Aziza*

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

*ORCID: 0000-0002-4873-7998*

*[a.azlarova@tsue.uz](mailto:a.azlarova@tsue.uz)*

**Annotatsiya.** Maqolada raqamli transformatsiya jarayonlari sharoitida bank tizimida innovatsion xizmatlarni rivojlantirish, ularning xavfsizligini ta'minlash va aholi moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari o'rganilgan. Muallif tomonidan aholining innovatsion bank xizmatlaridan foydalanishining bank tizimi barqarorligiga ta'siri hamda kiberxavfsizlik muammolari aniqlangan. Tadqiqot natijasida ilmiy taklif, amaliy tavsiya hamda xulosalar shakllantirilgan.

**Kalit so'zlar:** raqamli transformatsiya, innovatsion bank xizmatlari, kiberxavfsizlik, moliyaviy savodxonlik, fintex, raqamli bank.

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ БЕЗОПАСНОСТИ БАНКОВСКИХ УСЛУГ И ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОЙ КУЛЬТУРЫ НАСЕЛЕНИЯ В ПРОЦЕССЕ ЦИФРОВИЗАЦИИ

*к.э.н., проф. Азларова Азиза*

*Ташкентский государственный экономический университет*

**Аннотация.** В статье рассматриваются вопросы развития инновационных услуг в банковской системе в условиях цифровой трансформации, обеспечения их безопасности и повышения финансовой грамотности населения. Автором определено влияние использования населением инновационных банковских услуг на устойчивость банковской системы и проблемы кибербезопасности. В результате исследования сформулированы научные предложения, практические рекомендации и выводы.

**Ключевые слова:** цифровая трансформация, инновационные банковские услуги, кибербезопасность, финансовая грамотность, финтех, цифровой банк.

## ENSURING THE SAFETY OF BANKING SERVICES AND IMPROVING THE FINANCIAL CULTURE OF THE POPULATION IN THE DIGITALIZATION PROCESS

*PhD, prof. Azlarova Aziza*

*Tashkent State University of Economics*

**Abstract.** The article examines the development of innovative services in the banking system under the conditions of digital transformation, ensuring their security, and improving the financial literacy of the population. The author identified the impact of the population's use of innovative banking services on the stability of the banking system and cybersecurity issues. As a result of the research, scientific proposals, practical recommendations, and conclusions were formulated.

**Keywords:** digital transformation, innovative banking services, cybersecurity, financial literacy, fintech, digital banking.

### **Kirish.**

Ma'lumki, bugungi kunda jahon moliya tizimida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi natijasida bank tizimida innovatsion xizmatlar ko'lami kengayib bormoqda. Respublikamizda ham bank xizmatlarida internet-banking, mobil banking, elektron to'lov tizimlari va fintex platformalari yangi bosqichga ko'tarildi.

Raqamli bank xizmatlarining rivojlanishi moliyaviy sohada yangi imkoniyatlar yaratish bilan birga, kiberjinoyatchilik xavfining oshishi, shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish muammosi, aholining raqamli va moliyaviy savodxonligining yetarli emasligi kabi bir qator xavflarni ham keltirib chiqarmoqda.

### **Adabiyotlar sharhi.**

Raqamlashuv jarayonida bank xizmatlari xavfsizligini ta'minlash hamda aholining moliyaviy madaniyatini yuksaltirish masalalari so'nggi yillarda jahon va mahalliy ilmiy tadqiqotlarda keng o'rganilayotgan dolzarb yo'nalishlardan biri hisoblanib, rivojlangan davlatlar tajribasida raqamli bank xizmatlari, kiberxavfsizlik va moliyaviy savodxonlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik chuqur tahlil qilingan.

Xorijlik iqtisodchilar Schneier va Mitnicklar (2015) tomonidan axborot xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy yondashuvlari ishlab chiqilgan, hamda ularda moliyaviy inklyuziya, raqamli moliyaviy xizmatlar xavfsizligi va aholining moliyaviy savodxonligini oshirish strategiyalari asoslab berilgan.

Xorijlik yana bir iqtisodchi olim Kronk (n.d.) ning fikricha, raqamli transformasiya moliya tizimining "qutqaruv aylanasi" hisoblanib, bank mijozlarining bank xizmatlaridan qoniqmasliklari muammosini xal qilishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Shu o'rinda davlatimiz raxbari Mirziyoev (2023), "Yangi O'zbekistonda yangi bank tizimi bo'ladi. 2025 yilga borib, davlat ulushini 70 foizdan 40 foizga tushirishimiz kerak," deb ta'kidlab o'tganlarini ham ta'kidlab o'tish joiz.

Tijorat banklarida innovatsion bank xizmatlari xavfsizligini ta'minlash masalalariga oid ilmiy tadqiqotlar o'zbekistonlik bir qator olimlar, xususan, Dodiev va Yusupova (2020), Umarov (2019), va Toymuxamedov (2022), Abduraxmanova (2024), Mamadiyarov (n.d.) va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan.

Shu bilan birga, bugungi raqamlashuv jarayonida bank xizmatlari xavfsizligini ta'minlash va aholining moliyaviy madaniyatini yuksaltirish masalalarida yuzaga keladigan kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash va bartaraf etish muammosi dolzarb masalalardan hisoblanadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu maqolaning nazariy va uslubiy asosi sifatida umumiy iqtisodiy adabiyot hamda ilmiy maqolalar, iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlari, raqamlashuv jarayonida bank xizmatlari xavfsizligini ta'minlash va aholining moliyaviy madaniyatini yuksaltirishga oid olimlar va soha vakillarining iqtisodiy qarashlari, ularning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ekspert baholash, jarayonlarni kuzatish, iqtisodiy hodisa va jarayonlarga tizimli yondashuv, muallif tajribalari bilan qiyosiy tahlil o'tkazish orqali tegishli yo'nalishlarda xulosa, taklif va tavsiyalar berilgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Mamlakatimizda axborot texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etiladigan jinoyatlarning oldini olish, kibermakonda shaxs, jamiyat va davlat manfaatlari tashqi va ichki tahdidlardan ishonchli himoya qilinishini ta'minlash sohasida mustahkam huquqiy asoslar yaratildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi Qonuni kredit tashkilotlari va nobank kredit tashkilotlari faoliyatida hamda elektron hukumat tizimida axborot xavfsizligini

kuchaytirishga va kiberxavfsizlikni ta'minlashga xizmat qiladi (Qonun, 2024).

O'zbekiston bank tizimining 2025–2026-yillardagi rivojlanish tendensiyalari raqamlashtirish jarayonlarining moliyaviy barqarorlik hamda xavfsizlik, aholi moliyaviy savodxonligiga sezilarli ta'sir ko'rsatayotganini tasdiqlaydi (Farmon, 2020).

Shu jihatdan, bank tizimidagi axborot xavfsizligini ta'minlash moliyaviy barqarorlik va mijozlar ishonchini saqlab qolishdagi muhim omil sanaladi.

Aholining moliyaviy savodxonligini oshirish jamiyatda huquqiy ong va madaniyatni rivojlantirish bilan uzviy bog'liq. Moliyaviy savodxonlik - bu shaxsning moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayonida zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va qadriyatlar majmui bo'lib, u farovonlik va hayot sifatini oshirishga xizmat qiladi (Sudakova, 2017).

Bank innovatsiyalarining o'ziga xos xususiyatlari shundaki, ular innovatsion infratuzilmani shakllantirish bilan bir qatorda, innovatsion ekotizimni yuzaga keltirishga xizmat qilishi lozim. Ya'ni, bankning innovatsion platformalari boshqa tizimlarning elektron platformalari bilan o'zaro aloqadorlik va moslik tamoyili asosida ishlashini ta'minlash, innovatsion jarayonlarga bank xodimlari va jalb etilgan mutaxassislar hamda boshqa manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish innovatsion ekotizimni yaratishdagi birinchi qadam bo'ladi.

Bank innovatsiyasi - faoliyatni sifat jihatdan yangi darajaga olib chiqishga xizmat qiladigan, amalga oshirilayotgan operatsiyalar va biznes jarayonlarning yuqori samaradorligini ta'minlash imkoniyatiga ega bo'lgan, avval hech qayerda qo'llanilmagan intellektual faoliyatning yakuniy mahsuloti sifatida qaraladi. Bunda FinTech loyihalari bevosita bankning o'zida shakllantirilishi va amalga oshirilishini e'tiborga olish zarur (Xakimov, n.d.).

Tijorat banklari innovatsion faoliyatining tashkiliy mexanizmlarini ishlab chiqishda innovatsiyalarning nazariy asoslari, shuningdek, faoliyatga Bank 3.0. va Bank 4.0. konsepsiyasini joriy etish, innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash va raqamli servislardan foydalanish imkoniyatini kengaytirish, xizmatlarni personallashtirish, raqamli platformalar va ekotizimlar faoliyatini tartibga solish mezonlaridan kelib chiqishi innovatsion faoliyat samaradorligini ta'minlash imkoniyatini beradi.

Mijozlarga moliyaviy xizmatlarni masofadan turib, qulay, tezkor va xavfsiz shaklda taqdim etish imkonini beruvchi zamonaviy texnologiyalar jumlasiga ATM, Internet banking, Mobil banking, QR-to'lovlar va NFC kabilar misol bo'ladi.

Ma'lumotlarga ko'ra, mamlakatimizda internet tarmog'ida axborot tarqatish va ma'lumot izlash imkoniyatlari kengayib, internetdan foydalanuvchilarning soni 31 milliondan oshgan, shundan 14 millioni ijtimoiy tarmoqlardan faol foydalanib keladi.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining axborot xavfsizligi va kiberxavfsizligiga doir minimal talablar to'g'risidagi nizomga asosan, Markaziy bank tijorat banklariga axborot xavfsizligi sohasida ichki siyosatni ishlab chiqish va tasdiqlash majburiyatini yukladi. Bundan tashqari, IT infratuzilmasini, axborot hamda kiberxavfsizlik tizimlarini boshqarish, nazorat qilish va uzluksiz ishlashini autsource kompaniyalarga topshirish taqiqlanadi.

Bundan tashqari, xizmat axborot xavfsizligini ta'minlash bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, zarur talab va me'yorlarni belgilaydi. Tizimlarda nosozliklar, avariya yoki kiberxavfsizlik hodisalari yuzaga kelganda esa ularni tiklash jarayonida ishtirok etib, tizimlarning to'liq va barqaror ishlashini nazorat qiladi.

Huquqbuzarlarning internet va ijtimoiy tarmoqlardan g'arazli maqsadlarda foydalanish holatlari ham kuzatilib, so'nggi olti yilda mamlakatimizda kiberjinoyatlar bo'yicha murojaatlar soni 48 baravarga oshgan. O'tgan 2025 yilda sodir etilgan firibgarlik jinoyatlarining 82 foizi, o'g'irlik jinoyatlarining 76 foizi kibermakonda sodir etilgan. Ular orqali jismoniy va yuridik shaxslarga yetkazilgan moddiy zarar 2 trillion so'mdan oshgan (president.uz, n.d.).

O'zbekistonda iqtisodiyotni raqamlashtirish va bank tizimini modernizatsiya qilish maqsadida bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, "O'zbekiston

Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident Farmoni (2026) qabul qilingan. Unda tijorat banklariga, bank va to'lov tizimlarining kiberxavfsizlik jihatidan barqarorligini ta'minlash, moliyaviy xizmatlar ko'rsatishda kredit-bank sohasi tashkilotlari faoliyatining operatsion ishonchligi va uzluksizligini oshirish lozimligi ko'rsatilgan.

Bundan tashqari, xalqaro tajribaga asoslanib bank xizmatlari sohasida turli xil firibgarliklarga qarshi kurashish choralarini ishlab chiqish, shuningdek, mijozlarni fishing, ijtimoiy muhandislik kabi tahdidlar to'g'risida xabardor qilish va ularni onlayn bankingdan xavfsiz foydalanishga o'rgatish vazifasi ham belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida kredit tashkilotlari sonining so'nggi yillarda izchil o'sib borishi moliya bozorida raqobat muhitining kengayib borayotganini ko'rsatadi. (1-jadval)

## 1-jadval

**Kredit tashkilotlari va ularning tarkibiy bo'linmalari haqida ma'lumot**  
(01.01.2026 yil holatiga) (cbu.uz, n.d.)

Kredit tashkilotlari	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	01.01.2026
Tijorat banklari, jumladan	32	35	36	36
Davlat ishtirokidagi banklar	12	10	9	9
Boshqa banklar (shu jumladan mikromoliya banklari)	20	25	27	27
Nobank kredit tashkilotlari, jumladan	167	169	193	224
Mikromoliya tashkilotlari	85	84	100	132
Lombardlar	81	84	92	91
Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti	1	1	1	1
<b>Kredit tashkilotlari jami</b>	<b>199</b>	<b>204</b>	<b>229</b>	<b>260</b>

Jumladan, 2023 yil boshida mamlakatda 199 ta kredit tashkiloti faoliyat yuritgan bo'lsa, 2026 yil 1 yanvar holatiga bu ko'rsatkich 260 taga yetgan.

## 2-jadval

**2026 yil 1 fevral holatiga bank to'lov infratuzilmasi ko'rsatkichlari haqida ma'lumot**  
(cbu.uz, n.d.)

No	Ko'rsatkichlar	
1	Muomaladagi bank plastik kartalari	69 232 341
2	O'rnatilgan to'lov terminallari soni	433 289
3	Bankomat va infokiosklar soni	42 354
4	2026 yil yanvar oyida terminallar orqali tushgan tushum (mln so'm)	41 948 200

Kredit tashkilotlari sonining ortishi bilan bir qatorda, 2026 yil 1 fevral holatiga ko'ra mamlakat tijorat banklari tomonidan muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 69,2 milliondan ortiqni tashkil etgan. O'rnatilgan to'lov terminallari soni 433 mingdan ziyod, bankomat va infokiosklar soni esa 42 mingdan ortiqni tashkil etmoqda. Bu ko'rsatkichlar bank infratuzilmasi hududlar kesimida kengayib borayotganini va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari yanada qulaylashganini anglatadi. 2026 yil yanvar oyi davomida

to'lov terminallari orqali amalga oshirilgan operatsiyalar hajmi 41,9 trillion so'mga yaqinni tashkil etgan. (2-jadval)

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, iqtisodiyotda raqamli transformatsiya jarayoni bank xizmatlarining innovatsion shaklda rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Innovatsion bank xizmatlarini samarali joriy etish uchun kiberxavfsizlikni ta'minlash va aholi moliyaviy savodxonligini oshirish muhim omillardan hisoblanadi.

Kiberxavf - bu axborot tizimlari, kompyuter tarmoqlari yoki ma'lumotlar xavfsizligini buzish bilan bog'liq potentsial tahdid yoki imkoniyat. Bu atama kiberhujumlar, xakerlik, viruslar, zararli dasturlar, kiber josuslik, fishing va boshqalarni o'z ichiga olgan keng ko'lamli potentsial tahdidlarni qamrab oladi.

Kiberxavflarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlar zamonaviy axborot xavfsizligi texnologiyalaridan foydalanish, dasturiy ta'minotni muntazam yangilash, kiberxavfsizlik sohasida xodimlarni o'qitish, monitoring va hodisalarga javob berish tizimlarini o'rnatishni o'z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, banklarda zamonaviy kiberxavfsizlik tizimlarini joriy etish, aholining moliyaviy savodxonligini oshirish dasturlarini kengaytirish, fintex kompaniyalar bilan hamkorlikni rivojlantirish, raqamli bank xizmatlarini ommalashtirish kabi chora-tadbirlar bank tizimining barqaror rivojlanishi va moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qiladi deb hisoblaymiz.

#### **Adabiyotlar/Jumepamypa/References:**

Abdurakhmanova M. et al. (2024) Transformation of Commercial Banks in the Conditions of Digital Technology Development. *Economic Development and Analysis*, 2(3), pp. 210–215. doi:10.60078/2992-877X-2024-vol2-iss3-pp210-215.

Azlarova A. (n.d.) Osobennosti razvitiya bankovskoy sistemi respubliki uzbekistan na sovremennom etape. *Economics and Innovative Technologies*, 11(5), pp. 1–7.

Dodiev F., Yusupova D. (2020) Innovative development of banks in Uzbekistan. *International Finance and Accounting*, 2020(5), Article 9.

Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2020–2025 yillarda O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida"gi PF-5992-son Farmoni. Toshkent.

Farmon (2026) "O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlik strategiyasini belgilash va kiberjinoyatchilikning oldini olish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi PF-38-son Farmoni. 10.03.2026. Available at: <https://lex.uz/docs/8079286>

Kronk Dj. (n.d.) Sifrovaya transformasiya finansovix uslug - nadejnoe vlojenie v budushee. Available at: [https://www.cisc0.c0m/c/dam/m/ru\\_ru/intemet-of-everything-ioe/iac/assets/pdfs/Cisco\\_Financial\\_m.pdf](https://www.cisc0.c0m/c/dam/m/ru_ru/intemet-of-everything-ioe/iac/assets/pdfs/Cisco_Financial_m.pdf)

Mirziyoev Sh.M. (2023) Bank tizimida transformasiya va xususiyashtirish jarayonlari muhokamasi bo'yicha yig'ilishi. 20 noyabr.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (n.d.) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki ma'lumotlari. Available at: <https://cbu.uz/uz/statistics/paysistem/3465027/>

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2025) O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining qarori, 18.08.2025 yilda ro'yxatdan o'tgan, ro'yxat raqami 3669. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/-7689673>

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (n.d.) Uyushgan jinoyatchilik va kiberjinoyatlarga qarshi kurashish takomillashtiriladi. Available at: <https://president.uz/uz/lists/view/9009>

Qonun (2024) O'zbekiston Respublikasining Kiberxavfsizlikni ta'minlash sohasidagi qonunchilik takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida gi O'RQ-964-son Qonuni. 20.09.2024 yil. Available at: <https://lex.uz/ru/docs/-7108720>

Schneier B. (2015) *Data and Goliath: The Hidden Battles to Collect Your Data and Control*

*Your World. New York: W.W. Norton & Company.*

*Sudakova A.E. (2017) Finansovaya gramotnost: teoreticheskoye osmysleniye i prakticheskoye issledovaniye. Finansy i kredit.*

*Xakimov A.A. (n.d.) Tijorat banklari innovatsion faoliyatining tashkiliy mexanizmlarini takomillashtirish. PhD dissertatsiyasi avtoreferati.*

*Тоймухамедов И.Р. (2022) Ўзбекистонда электрон пуллардан фойдаланиш истиқболлари. Архив научных исследований, 4(1).*

*Умаров З. (2019) Янги банк хизматлари, уларни ривожлантириш. [finance.uz](http://finance.uz), 22-03-2019. Available at: <https://finance.uz/index.php/uz/fuz-menu-biznes-uz/4490-zafarumarov-yangi-bank-xizmatlari-ularni-rivojlantirish>*